ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK:399.1(555.1)(096)
ORCID: 0009-0005-2557-6430

SAIDMURADOVA SOXIBA
TerDPI dotsenti, PhD
E-mail: Ssaxiba69@gmail.ru
M.OLTIBOYEVA
TerDPI talabasi

ALISHER NAVOIYNING "XAMSA" ASARIDA OBRAZ YARATISH MAHORATI

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada buyuk mutafakkir shoir, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlarida obraz yaratish mahorati tahlil qilinadi. Asarda shoir tomonidan yaratilgan qahramonlarning badiiy-estetik xususiyatlari, xarakteri va ruhiy kechinmalari yoritilib, ular orqali ilgari surilgan axloqiy va ma'naviy g'oyalar ochib beriladi. Navoiyning obrazlar yaratishdagi yuksak san'atkorligi va ularning adabiy ahamiyati ilmiy jihatdan asoslanadi. Navoiy "Xamsa"sining vazn xususiyatlarini tadqiq qilishda vazn va ritmik variatsiyalar munosabati o'rganilib, hazaji axrab va xafif bahrlariga xos ritmik variatsiyalarga urg'u qaratiladi va ularning dostonlar mazmunini ochishdagi o'rniga to'xtalib o'tiladi. "Xamsa" dostonlarining ohang xususiyatlarini o'rganishda ritmik urg'uning ahamiyatiga e'tibor qaratiladi.Navoiy ijodida badiiy san'atlarning o'rnini tadqiq etish ham o`ziga xos tarzda e`tibor talab etadi. Bunda badiiy san'atlarga mumtoz ilmi badi'ga doir tasnif (lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlar) asosida yondashiladi. "Xamsa" dostonlarida qo'llanilgan yetakchi badiiy san'atlarga e'tibor qaratiladi.Navoiy she'riyatini ilmi qofiya asosida tadqiq qilish. Bunda Navoiyning qofiya tizimiga kiritgan yangiligi, Navoiy ijodida qo'llanilgan qofiya turlari o'rganiladi, o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi qofiya turlari va tuzilishiga ko'ra farqlanuvchi qofiya turlarining Navoiy she'riyatidagi o'rniga ahamiyat qaratiladi. Radif va hojib, saj' va qofiya munosabatlari o'rganiladi.

KALIT SO'ZLAR: *Alisher Navoiy, Xamsa, obraz, badiiy mahorat, estetik tafakkur, doston, komil inson g'oyasi, adolat, muhabbat.*

МАСТЕРСТВО АЛИШЕРА НАВАЯ В СОЗДАНИИ ОБРАЗОВ В РАБОТЕ «ХАМСА»

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируется мастерство Алишера Навои в создании художественных образов в эпическом цикле «Хамса». Рассматриваются художественно-эстетические особенности персонажей, их характеры и внутренние переживания, а также раскрываются нравственные и духовные идеи, выраженные через эти образы. Подчёркивается высокое художественное мастерство поэта и литературная значимость созданных им образов. При изучении метрических характеристик «Хамсы» Навои исследуется взаимосвязь между метром и ритмическими вариациями, особое внимание уделяется ритмическим вариациям, характерным для хазаджи ахрабов и хафиф байров, и обсуждается их роль в раскрытии содержания эпоса. При изучении тональных характеристик эпоса «Хамса» уделяется внимание важности ритмического акцента. Изучается место художественных искусств в творчестве Навои. При этом художественные искусства рассматриваются на основе классической научной классификации искусств (вербальные, духовные и смешанные искусства). Уделяется внимание ведущим художественным искусствам, используемым в эпосе «Хамса». Поэзия Навои изучается на основе научной рифмы. При этом изучаются нововведения Навои в системе рифмы, типы рифмы, используемые в его творчестве, и подчеркивается роль типов рифмы, различающихся по корневому составу, и типов рифмы, различающихся по структуре, в поэзии Навои. Изучается взаимосвязь между радифом и хаджибом, саджем и рифмой.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Алишер Навои, Хамса, образ, художественное мастерство, эстетическое мышление, эпос, представление об идеальном человеке, справедливость, любовь.*

ALISHER NAVAI'S IMAGE CREATION SKILLS IN THE WORK «KHAMSA»

ABSTRACT. This article analyzes Alisher Navoi's mastery of character creation in his epic cycle "Khamsa." The artistic and aesthetic features, character traits, and psychological depth of the images created by the poet are examined. Through these characters, the moral and spiritual ideas promoted by Navoi are revealed. The article highlights the poet's exceptional skill in character portrayal and emphasizes the literary significance of the images in the "Khams In the study of the meter characteristics of Navoi's «Khamsa», the relationship between meter and rhythmic variations is studied, the emphasis is placed on the rhythmic variations characteristic of the hazaji akhrab and khafif bayrs, and their role in revealing the content of the epics is discussed. In the study of the tone characteristics of the «Khamsa» epics, attention is paid to the importance of rhythmic emphasis. To study the place of artistic arts in Navoi's work. In this, the artistic arts are approached based on the classical scientific classification of art (verbal, spiritual and mixed arts). Attention is paid to the leading artistic arts used in the «Khamsa» epics. To study Navoi's poetry based on scientific rhyme. In this, Navoi's innovations in the rhyme system, the types of rhyme used in Navoi's work are studied, and the role of rhyme types differentiated by root composition and rhyme types differentiated by structure in Navoi's poetry is emphasized. The relationship between radif and hajib, saj' and rhyme is studied.

KEYWORDS: *Alisher Navoi, Khamsa, image, artistic skill, aesthetic thinking, epic, idea of a perfect person, justice, love.*

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

KIRISH. Alisher Navoiy - o‘zbek mumtoz adabiyotining asoschisi, Sharq adabiy tafakkurini yangi bosqichga olib chiqqan buyuk mutafakkir shoir. Uning badiiy merosi nafaqat o‘z davri, balki keyingi asrlar adabiy jarayoniga ham kuchli ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Navoiy ijodida inson, jamiyat, axloq, muhabbat, sadoqat va adolat masalalari markaziy o‘rin egallaydi. Ayniqsa, shoirning “Xamsa” asari mazkur g‘oyalarning badiiy jihatdan mukammal ifodasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

“Xamsa” — besh dostondan iborat yirik epik majmua bo‘lib, unga “Hayrat ul-abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor” hamda “Saddi Iskandariy” dostonlari kiradi. Ushbu asar mazmunan rang-barangligi, falsafiy chuqurligi va yuksak badiiy mahorati bilan Sharq adabiyotida muhim o‘rin tutadi. Navoiy mazkur dostonlar orqali turkiy tilda yuksak epik an’anani yaratib, badiiy tafakkurning yangi imkoniyatlarini namoyon etgan. “Xamsa” dostonlarining badiiy qudrati, avvalo, unda yaratilgan obrazlarning hayotiyligi va ruhiy teranligi bilan belgilanadi. Shoir qahramonlarni biryoqlama ideal timsollar sifatida emas, balki murakkab ichki kechinmalar, axloqiy tanlovlar va ijtimoiy mas’uliyatga ega shaxslar sifatida tasvirlaydi. Bu holat Navoiyning obraz yaratishdagi yuksak san’atkorligini yaqqol namoyon etadi.Navoiy yaratgan Farhod, Majnun, Layli, Shirin, Iskandar kabi obrazlar komil inson g‘oyasining badiiy ifodasidir. Ushbu qahramonlar orqali shoir muhabbat va fidoyilik, aql va adolat, ilm va ma’naviyat kabi umuminsoniy qadriyatlarni ulug‘laydi. Shu bilan birga, dostonlarda uchraydigan salbiy obrazlar orqali jamiyatdagi illatlar — kibr, hirs, zulm va johillik keskin tanqid qilinadi.Shu jihatdan, “Xamsa” asarini obrazlar tizimi orqali o‘rganish Navoiyning badiiy-estetik qarashlari, inson va jamiyat haqidagi falsafiy konsepsiyasini chuqur anglashga xizmat qiladi. “Hayrat-ul abror”dostonining 5-maqolatida сахий кишининг сифатини баён этиb shoir shunday deydi:

Они сахий онглагил, эй ҳушманд,
Ким ани давлат қилибон сарбаланд.
Ҳожи агар яхши дурур, гар табоҳ,
Кимсадин этмас тамаъйи мол-у жоҳ,

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlarida obraz yaratish mahorati, qahramonlar xarakterining shakllanishi va ularning badiiy vazifasi ilmiy tahlil etiladi.Alisher Navoiy “Xamsa”ni yaratishda Sharq mumtoz adabiyotining ilg‘or an’analariga tayangan holda, obraz yaratishda o‘ziga xos badiiy uslubni shakllantirgan. Shoir obrazlarni hayotiy voqelik, falsafiy tafakkur va axloqiy qarashlar bilan uyg‘unlashtiradi. Qahramonlar tasviri orqali nafaqat muayyan voqea bayon qilinadi, balki inson ruhiyati, ichki kechinmalari va axloqiy qiyofasi chuqur ochib beriladi.Navoiyning obraz yaratishdagi muhim xususiyatlaridan biri — psixologik tahlilga alohida e’tibor qaratishidir. Shoir qahramonning tashqi qiyofasini tasvirlash bilangina cheklanmay, uning ichki olami, his-tuyg‘ulari va tafakkurini badiiy vositalar orqali ifodalaydi. Shu bois “Xamsa” qahramonlari hayotiy va ta’sirchan ko‘rinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. “Xamsa” dostonlarida yaratilgan ijobiy obrazlar komil inson g‘oyasining yorqin namunalaridir. “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod obrazi yuksak insoniy fazilatlar — fidoyilik, mehnatsevarlik va sadoqat timsoli sifatida gavdalanadi. Farhod o‘z maqsadi yo‘lida jismoniy kuch bilan bir qatorda aql-zakovat va iroda kuchidan foydalanadi. U muhabbatni shaxsiy manfaat emas, balki yuksak axloqiy qadriyat sifatida anglaydi. Shirin obrazi esa aqlli, mustaqil fikrlovchi, o‘z qadr-qimmatini biladigan ayol timsolidir. Navoiy Shirin orqali ayol obraziga yangicha yondashib, uni faol va ta’sirchan shaxs sifatida tasvirlaydi. Bu holat shoirning ilg‘or ijtimoiy qarashlarini ko‘rsatadi. “Layli va Majnun” dostoni ruhiy-psixologik obrazlar yaratish jihatidan “Xamsa”ning eng teran asarlaridan biridir. Majnun obrazi muhabbat yo‘lida o‘zini unutgan, dunyoviy manfaatlardan voz kechgan inson sifatida tasvirlanadi. Uning muhabbati ilohiy darajaga ko‘tarilib, tasavvufiy mazmun kasb etadi. Shoir Majnun obrazida ruhiy iztirob, yolg‘izlik va ichki kurashlarni chuqur psixologik tahlil asosida ochib beradi.A.Navoiy “Layli va Majnun” dostonida o`zigacha shu mavzuda yozilgan asarlardan farqli voqealar, timsollar talqinini berganligini ta`kidlaydi:

Men turkcha boshlabon rivoyat,
Qildim bu fasonani hikoyat.
Kim shuhrati-chun jahonda to`lg`ay,
Turk elig`a dog`i bahra bo`lg`ay.
(MAT,9-tom,311-bet.)

Layli obrazi esa sadoqat, or-nomus va sabr timsolidir. U jamiyat bosimi ostida qolgan bo‘lsa-da, o‘z muhabbatiga xiyonat qilmaydi. Ushbu obrazlar orqali Navoiy muhabbatning murakkab va fojeaviy tabiatini badiiy yuksaklikda aks ettiradi.

Navoiy salbiy obrazlarni yaratishda ham katta badiiy mahorat ko‘rsatadi. “Farhod va Shirin” dostonidagi Xusrav, shuningdek, ayrim dostonlardagi zolim podshohlar obrazi orqali shoir kibr, hirs va adolatsizlikni tanqid qiladi. Salbiy qahramonlar obrazlari ijobiy qahramonlarning fazilatlarini yanada yorqinroq ochib berishga xizmat qiladi.Salbiy obrazlar biryoqlama emas, balki o‘ziga xos ruhiy sabab va motivlarga ega bo‘lib, bu holat Navoiyning realizmga yaqinlashganligini ko‘rsatadi.

“Sab’ai sayyor” dostoni obrazlarning rang-barangligi bilan ajralib turadi. Bu asarda Bahrom obraziga bog‘liq holda turli mamlakatlar, turli millatlar vakillari tasvirlanadi. Har bir hikoyada yangi qahramonlar orqali hayotiy muammolar, axloqiy saboqlar va insoniy fazilatlar

yoritiladi. Navoiy bu dostonda hikoya ichida hikoya usulidan foydalanib, obrazlar orqali pand-nasihatlarni mahorat bilan ifodalaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar obrazi adolatli, ilmli va xalqparvar hukmdor sifatida tasvirlanadi. U kuch bilan emas, aql va adolat bilan davlatni boshqaradi. Iskandar obrazi orqali Navoiy ideal podshoh konsepsiyasini ilgari surib, hokimiyat va axloq uyg'unligini ta'kidlaydi.Obrazlar tizimi va badiiy vositalar Navoiyning obraz yaratish mahorati badiiy tasvir vositalari — tashbeh, istiora, tazod va ramzlardan samarali foydalanishida ham namoyon bo'ladi. Ushbu vositalar obrazlarning ruhiy holatini ochishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, dialog va monologlar qahramonlarning ichki dunyosini chuqurroq anglash imkonini beradi. "Saddi Iskandariy" dostoniningasosiy mazmun-g`oyasini adolat, komillikka erishuv tashkil etishini ta`kidlab:

Skandar jahondori kishvariston,
Ishidin chu nazm o`lsa har doston.
So`zidin dog`I yaxshi targ`ib ila,
Hamul doston zaylida zeb ila.
(MAT, 11-tom, 62-bet)

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning "Xamsa" asari Sharq mumtoz adabiyotida obraz yaratish san'atining eng yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Shoir ushbu dostonlar turkumida inson obrazini nafaqat tashqi voqealar orqali, balki uning ichki ruhiy olami, axloqiy qiyofasi va ijtimoiy mas'uliyati bilan uyg'un holda tasvirlashga erishgan. Bu holat Navoiyning yuksak badiiy tafakkuri va san'atkorlik salohiyatini yaqqol namoyon etadi.

"Xamsa"dagi obrazlar tizimi mukammal va mantiqan asoslangan bo'lib, har bir qahramon muayyan g'oya va maqsadni ifodalaydi. Farhod, Majnun, Layli, Shirin, Iskandar kabi qahramonlar orqali komil inson, sof muhabbat, sadoqat, fidoyilik va adolat g'oyalari ilgari suriladi. Ushbu obrazlar o'z hayotiyligi va ruhiy chuqurligi bilan o'quvchi qalbida chuqur ta'sir uyg'otadi.Shoir salbiy obrazlar orqali esa jamiyatdagi illatlar — kibr, hirs, zulm, adolatsizlik va ma'naviy qashshoqlikni keskin tanqid qiladi. Bu qarama-qarshi obrazlar o'rtasidagi badiiy ziddiyat "Xamsa" asarining g'oyaviy ta'sir kuchini yanada oshiradi. Navoiy salbiy qahramonlarni ham biryoqlama emas, balki muayyan ruhiy va ijtimoiy sabablar asosida tasvirlab, obrazlar yaratishda realizmga yaqinlashadi. Alisher Navoiy obraz yaratishda badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalanadi. Tashbeh, istiora, ramz va tazodlar qahramonlar xarakterini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dialog va monologlar orqali qahramonlarning ichki kechinmalari, tafakkur jarayoni va ruhiy iztiroblari chuqur ifodalanadi. Bu esa "Xamsa"ni nafaqat epik asar, balki ruhiy-falsafiy tadqiqot darajasiga ko'taradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, "Xamsa"dagi obrazlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ularda ilgari surilgan insonparvarlik, adolat, muhabbat va ma'naviy poklik g'oyalari yosh avlod tarbiyasida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Navoiy, Alisher. Xamsa. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
2.Hayitmetov, A. Alisher Navoiy ijodiy merosi. — Toshkent: Fan.
3.Qayumov, A. Navoiy va adabiyot masalalari. — Toshkent: O'qituvchi.
4.Rasulov, V. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. — Toshkent: Fan.
Saidbekov, T. Mumtoz adabiyot poetikasi. — Toshkent: Universitet.